

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda urf-odat, an'ana va madaniyatlarning ahamiyati

Sobirova Nodira Jumanazar qizi

Urganch davlat universiteti, "Geografiya" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Собирова Нодира Жуманазар кизи,

Урганчский государственный университет,

студент 2-го курса направления "География"

Sobirova Nodira Jumanazar kizi,

Urgench state university, student of the 2nd stage of the "Geography" course

Keywords: Easter, demonstrative method, luni-solar calendar, Christianity, Orthodoxy, Judaism, Egypt, Virgin Mary, Otsovsky den, Germany, Hamburg, liturgical church year

Abstract: This article highlights the importance of studying the customs, traditions and cultures of peoples in teaching social and economic geography. The teaching of traditions and cultures using methods in social and economic geography is demonstrated and illustrated using methods on the example of Easter.

Tayanch so'zlar: Pasxa, ko'rgazmali usul, Oy-Quyosh kalendari, xristianlik, pravoslav, iudizm, yahudiylik, Misr, Bogoroditsa, Otsovskiy den, Germaniya, Gamburg, liturgik cherkov yili.

Ключевые слова: Пасха, демонстративный метод, Лунно-Солнечный календарь, христианство, православие, иудаизм, иудаизм, Египет, Богородица, Отцовский день, Германия, Гамбург, литургический церковный год.

Annatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda xalqlarning urf-odat va an'ana hamda madaniyatlarini o'rganishning ahamiyati yoritib berilgan. Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanlarida an'ana hamda madaniyatlarni metodlar yordamida o'rgatilishi Pasxa bayrami misolida metodlar bilan ko'rsatilgan va yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность изучения обычаев, традиций и культуры народов при преподавании социальной и экономической географии. Преподавание традиций и культуры в социальной и экономической географии с помощью методов показано и освещено на примере праздника Пасхи.

Kirish: Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda o'quvchi va talabalar yaxshi esda saqlashlari uchun turli xil metodlar qo'llaniladi. Xususan ko'rgazmali usullar. Agarda ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda urf-odat an'ana va madaniyatlardan foydalansak, o'quvchilar bu metodlar orqali shu urf-odat mavjud bo'lgan xalqlarni yaxshi esda saqlab qoladi. Shu kabi an'analardan biri bu Pasxa bayramidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda madaniy omillarni o'rganish bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, urf-odatlar, an'analar va diniy bayramlar geografik bilimlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, Pasxa bayramining tarixiy, diniy va madaniy asoslari bir qancha manbalarda yoritilgan.

Tahlil qilingan manbalarda, xususan, "Dinshunoslik" o'quv qo'llanmalari (Toshkent, 2007; Namangan, 2024) va FarDU ilmiy xabarlarida bayramlarning kelib chiqishi, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni, xristianlik va yahudiylikdagi mazmuniy farqlari keng yoritilgan. Bu manbalar

asosida Pasxa bayramining tarixiy rivoji, Rim imperiyasidagi diniy siyosat, Nikeya sobori qarorlari, hamda yahudiylidagi Pesax bayrami bilan aloqador jihatlari taqqoslab o'rganilgan. Shuningdek, Germaniyada Pasxa bayramining zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri haqidagi ma'lumotlar ham <https://www.ferien-und-feiertage.de> kabi amaliy manbalardan olingan. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar esa o'quvchilarning dars materiallarini ongli va faol qabul qilishlariga qaratilgan bo'lib, quyidagicha tavsiflanadi: Ko'rgazmali metod (demonstrativ usul): o'quvchilar tomonidan rangli tuxumlar tayyorlanib, ular dars jarayonida ishlatiladi. Bu orqali nafaqat Pasxa bayrami, balki uni nishonlovchi xalqlar haqida ham eslab qolish osonlashadi. Interaktiv o'yin elementi bilan boyitilgan metod: sinf ichida yashirilgan tuxumlarni izlash yoki ko'zi bog'langan o'quvchini boshqarish orqali o'zaro hamkorlik va kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi. Taqqoslash usuli: yahudiylik va xristianlikdagi Pasxa bayramlarining o'xshash va farqli jihatlari qiyoslash orqali talabalar diniy geografiyaning mohiyatini yanada chuqurroq anglaydi.

Ushbu metodlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanining madaniy komponentini boyitadi va o'quvchilarning darsni qiziqish bilan eslab qolishlariga xizmat qiladi.

Muhokama:

PASXA(yunoncha, ivritcha – “yonidan o'tish”)- xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy-Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o'zgarib turadi.

Pasxa bayramining kelib chiqishi. Xristian jamoasining shakllanishi, aqidalarining tartibga solinishi, cherkov munosabatlarning ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asr boshlarida, ya'ni 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshirildi. 325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini (o'tkazilgan 21 sobordan birinchisi) chaqirdi. Bu soborda «e'tiqod timsoli»ning (Credo) dastlabki tahriri qabul qilingan, pasxani bayram qilish vaqti belgilangan, ariychilik qoralangan (Ariy Aleksandriya shahridan chiqqan ruhoni; 318 yilda o'g'il-Xudo va Ota-Xudoning yagona mohiyati haqidagi cherkov ta'limotiga qarshi chiqib, Isoning ilohiy xususiyatlari va shon shuhrati jihatidan OtaXudodan keyin turadi, chunki ota-xudo azaliy va abadiy, Isoni u yaratgan deb targ'ib qilgan)[2]

Xristianlik dinida buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o'rinda turadi. Pasxa – Isoning o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylidagi peysax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylidagi to'la ajralib chiqqach Pasxa yangicha tus olgan.[2]

Iudaizmda yahudiylarning kundalik turmushi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga katta e'tibor beriladi. Mazkur dinda diniy bayramlarga ham alohida e'tibor beriladi. Ularning asosiyalaridan biri pesax (pasxa) – bahorning boshlanishi bayrami .[3]

Pravoslavlikda katta bayramlarning eng nufuzlisi pasxa (grekcha pascha – qadimgi yahudiy tilidagi pesach so'zidan olingan va so'zma-so'z tarjimasi – kelib chiqish, nasl-nasab, asli degan ma'nolarni anglatadi) bayramidir. Bu bayram Isoning xochga tortib o'ldirilganidan keyin mo'jizaviy qayta tirilishi xotirasiga bag'ishlanadi. Xristianlikdagi ushbu bayram iudaizmdagi messiyaning kelishiga bag'ishlab o'tkaziladigan pasxa bayramidan o'zlashtirilgan. Dastlabki davrlarda ularning o'tkazilish vaqti ham bir kunga to'g'ri kelgan. Pasxa bayrami iudaizmdagi pasxa bayrami tugaganidan keyingi birinchi yakshanbada o'tkaziladi. U bir hafta davom etadi.[3]

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysax (Pasxa) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli o'laroq, yaxudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiyyaxudiylarda Pasxa deb qo'zichoq go'shti va vinodan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy bo'lmagan go'daklarni qirib tashlashga qaror qilganda ular o'z uylarining peshtoqini o'sha qoni bilan bo'yab o'zlarini yahudiy ekanliklarini bildirganlar.[4]

Rus Pravoslavining ko'p kunlik postlari to'rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug'ilgan kundan oldin. Buyuk bayram ichida Pasxa birinchi o'rinda turadi. Pasxa Isoning o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. U yilning 22 aprelidan may oyining birinchi yakshanbasigacha o'tkaziladigan bayram. U "Otsovskiy den" dan avval o'tkaziladi. Pasxaning tarixi yaxudiylikdagi pesax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yaxudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishini nishonlanishidir. Xristianlik yaxudiylikdan to'la ajralib chiqqach pasxa yangicha tus olgan.[4]

Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanlarida Germaniya mavzusini o'rganar ekanmiz Pasxa bayrami alohida ahamiyatga ega:

Pasxa bayramlari Germaniya misolida, shuningdek, bahor bayramlari yoki ayniqsa Gamburgda chang'i bayramlari sifatida ham tanilgan, mart va yoki aprel oylariga to'g'ri keladi. Gamburgda chang'i ta'tillari muntazam ravishda mart oyining birinchi uchdan birida boshlanadi.

O'quv yilida Pasxa bayramlarining ahamiyati O'zgaruvchan nomlarning o'zi o'quv yilining ma'nosini juda boshqacha nuqtai nazardan qabul qilish mumkinligini ko'rsatadi. Maktab nuqtai nazaridan, har yili jami **75 ta ta'til kunini** muntazam tanaffuslarga taqsimlash oqilona ko'rinadi, chunki ta'til davrlari dam olish uchun ham, darsda o'rganilgan materialni chuqurlashtirish yoki takrorlash uchun ham xizmat qiladi. Xristianlikda Pasxa **liturgik cherkov yilining** eng yuqori nuqtasidir; Pasxa bayramlari unga tayyorgarlik ko'rish va kundalik ehtiyojlardan xoli bayramni nishonlash imkoniyatini beradi. 2025 yil bahorgi ta'til sifatida dam olish kunlari birinchi navbatda ajoyib ochiq havoda dam olish vaqti bo'lib xizmat qiladi. [5]



Germaniyada bu bayram juda keng nishonlanadi va bu bayram paytida tirbandliklar juda ko'p bo'ladi.

Natijalar:

Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda quyidagi metodni keltirishimiz mumkin:

O'quvchilarga darsdan oldin har bitta o'quvchi bittadan tuxumni qaynatib, turli ranglarga bo'yab kelishi aytiladi. Dars jarayonida o'quvchilar barcha bo'yalgan tuxumlarni o'qituvchisiga

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

topshiradi va sinf xonasidan chiqib turadi. O'qituvchi yakka holatda yoki sinf sardori bilan birgalikda tuxumlarni sinf xonasiga yashiradi. Tuxumlarni yashirish tugallanganidan so'ng o'quvchi yoki talabalar sinf xonasiga kirishadi va tuxumlarni qidirish boshlanadi. Eng ko'p tuxum tiogan o'quvchi yoki talaba g'olib sanaladi.

Tuxumlar bilan bog'liq ikkinchi metod:

O'quvchi yoki talabalarga darsdan oldin tuxumlarni qaynatib va bo'yab kelishlari aytiladi. Dars jarayonida barcha o'quvchilardan tuxumlar yig'ib olinadi. Tuxumlar yerga yoyiladi, hohlovchi yoki o'qituvchi tanlagan o'quvchi yoki talabaning ko'zlari bog'lanadi. Bu o'quvchiga yordamchi o'quvchi tanlanadi. Yordamchi o'quvchi ko'zi bog'langan o'quvchiga harakatlarni aytib turadi va ko'zi bog'langan o'quvchi aytilgan harakatlarga mos harakatlanadi. Bitta ham tuxumni bosmay marraga yetib kelgan o'quvchi yoki talaba g'olib sanaladi.

Xulosa:

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitishda xalqlarning urf-odatlarini, an'analari va diniy madaniyatlarining o'rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Pasxa bayrami misolida olib borilgan metodik yondashuvlar bu fan doirasida madaniy omillarni o'rgatishda samarali vosita bo'la oladi. Ko'rgazmali va interaktiv metodlar, xususan, rangli tuxumlar bilan bog'liq o'yinlar o'quvchilarda nafaqat bayram haqida tasavvur hosil qiladi, balki uni nishonlaydigan xalqlar, ularning yashash hududi, diniy e'tiqodlari hamda madaniyati haqida chuqur bilimga ega bo'lishlariga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani chuqurroq tushunishga, dars jarayonining qiziqarli va esda qolarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur maqola orqali geografiyani madaniyat bilan bog'lab o'qitishning samarali usullari yoritilgan bo'lib, bu yondashuv dars sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. 456-457-betlar
2. Dinshunoslik fanidan o'quv uslubiy majmua. Namangan 2024. 38-41-196-bet.
3. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent 2007. 61-116-betlar
4. Dinshunoslik O'quv qo'llanma. 30-68-193-betlar
5. <https://www.ferien-und-feiertage.de/schulferien/osterferien.html>